


# *Qalam o'ylari*

*Adham Sharqoviy*





Qo'lingizdagi ushbu kitob yosh arab yozuvchisi Adham Sharqoviyning **“Qalam o'ylari”** (أضغاث أقلام) nomli asarining **“Mubtado”** jamoasi tomonidan qilingan o'zbekcha tarjimasidir. Kitob mavzusi va uslubi bundan bir necha oy muqaddam tarjima qilingan ayni muallifning **“Qisqa o'y-fikrlar”** (تأملات قصيرة جدا) asariga o'xshashdir: yozuvchi o'z dunyo qarashlari, fikr-mulohazalarini qalam orqali ifodalagan. Shuni eslatib o'tishimiz kerak, kitobdan yozuvchining ayrim fikrlarini ma'lum sabablarga ko'ra tushirib qoldirishimizga to'g'ri keldi. Albatta, asar yozuvchi mulki. Lekin ushbu tarjimamiz qisqagina fikrlardan iborat bo'lgani uchun bu tushirib qoldirilganlar kitob mazmuniga katta ta'sir ko'rsatmaydi, degan umiddamiz. Shoyad, bu kitobni asl nusxasida o'qishingizga turtki bo'lsa. Maroqli mutolaa tilab, **“Mubtado”** jamoasi!

28.06.2020

**Tarjimonlar:** Inog'omov Fayzulloh, A'zamov Asadulloh,

Sultonov Abdurahmon, Abror Hasan o'g'li, Shamsuddin Sadrudin

## Muallif haqida

Adham Sharqoviy - falastinlik yosh yozuvchi. Bayrutdagi Livan universitetining arab adabiyoti qismini tugatgan. Arab adabiyoti bo'yicha magistr.

Oilali: uch qiz va bir o'g'ilning otasi.

### Asarlari:

- "Nabiy bilan";
- "Umar ibn Xattobni uchratganimda";
- "Muhabbat deya atalmish narsa haqida";
- "Faqat erkaklar uchun";
- "Tungi suhbat";
- "Tonggi suhbat";
- "Hikoya qilinishicha";
- "Yaqiyn xabar";
- "Va, vaqtiki, sahifalar nashr qilinsa";
- "Qisqa o'y-fikrlar";
- "Qalam o'ylari" va yana boshqalar.



**Qo'lingizdagi ushbu asar kitobning uchinchi nashridan o'zbek tiliga  
o'girildi**

## ***Bag‘ishlov***

*Johiliyat she’rlaridek ohangsiz arabga,*

*birodar... do‘st... suyuqli inson*

*“Fahd al-Avda”ga*

*bu kitobni bag‘ishlayman*

**0.**

Qabrtoshimga yo‘g‘on harflar bilan yozib qo‘ying: “Bu yerda aldamasdan yozishga intilgan kishi ko‘milgan”.

Keyin, ingichka harflar bilan qo‘shib qo‘ying: “Unga intilganligining sharafi yetadi!”

**1.**

Yangi uyga ko‘chib o‘tganingizda xursandchilik sizni topib kelishi uchun kelgan yo‘lingizga non ushoqlaridan sepib qo‘ying. Qayg‘udan bo‘lsa xavotir olmang. U shahar xaritasini yodlab olgan tilanchiga o‘xshaydi!

**2.**

Osmono‘par binolarda yashovchilar, pastak kulbalarda yashovchilardan ko‘ra osmonga yaqinroq emas.

Har bir ko‘tarilishning narxi qandaydir bir tushishdir!

**3.**

Boshqalarga erkinlikni berish yozgan narsalarimizning hammasi ham ularga yoqavermasligida.

Esingizda bo‘lsin, biz qalam egasimiz, xipchinning emas.

**4.**

Hayot u haqida uzun matn yozishdan ko‘ra qisqaroq!

**5.**

Sevgi haqida so‘zlaganda erkak kishi g‘alabalarini aytadi.

Ayol kishi esa, mag‘lubiyatlarini.

Erkak kishi: “Meni ayol zoti xarob qildi”, - deyishdan qo‘rqadi.

Ayol kish bo‘lsa: “Men bir erkakni xarob qildim”, - deyishdan ko‘ra ziyrakroq.

**6.**

Agar kimnidir o‘z axloqing darajasiga ko‘tara olmasang,

hech bo‘lmaganda, u seni o‘z axloq darajasiga tushirib olishiga yo‘l berma.

**7.**

Ba’zilarida imkoniyatlar emas, jur’at yetishmaydi.

Koʻrmaysanmi, stolning toʻrtta oyogʻi bor, lekin yura olmaydi.

**8.**

Eng koʻp sotiladigan kitoblar - ovqat tayyorlash va tush taʼbirlari haqidagi kitoblardir.

Bundan koʻrinadi-ki, biz yeydigan va uxlaydigan yaxshi xalqmiz.

**9.**

Muhimi, baʼzida oʻzing haqingda ham oʻylab tur.

Yer sayyorasini yoritgan Edison oʻz qabrini yoritishdan ojiz.

**10.**

Oliyjanoblik boʻlib tuyuladigan hamma ishlar ham haqiqatda shunday emas.

Sendan tabassum qilishni soʻrayotgan suratkash, shodliging haqida qaygʻurmayapti, balki buning barchasi surat uchun xolos!

## 11.

Senga: “Bu yurtda hamma taroq tishlari kabi tengdir!”, -  
deyishsa-yu, keyin sen aslida vatan kalbosh ekanini  
bilishingmana bu, haqiqatda, fojea!

## 12.

Shaytonlar yangi gunohlarni ixtiro qila olmaydi.

Ular biz nima qilayotganimizni shunchaki kuzatib turishadi,  
keyin uni boshqalarga uzatishadi.

## 13.

Mendan: “Nega qalbingni xonamning devorida qoldirding”, -  
deb so‘rasang, senga quyidagicha javob beraman: “Men Juho<sup>1</sup>ga  
o‘xshayman. Qaytishim uchun bitta mix kerak”.

## 14.

O‘g‘liga dedi: “O‘g‘lim oldinga intil! Ajdodlarimiz dunyoning  
podsholari ekanini aytgandim-ku”.

---

<sup>1</sup> Arab xalq og‘zaki ijodida afandi obrazi



“O‘g‘lim, o‘ylashimcha senga aytadigan vaqt keldi. Biz yashayotgan uyimiz ijaraga olingan”.

## 15.

Sen arradek holingda qanday do‘st bo‘lib qolamiz?!

Arra daraxt go‘shini yemasa, o‘zini ishdan chiqqan deb o‘ylaydi!

## 16.

Hoy Nyuton, sen tortishish(gravitatsiya)qonuni nima ekanini bilasanmi? Men o‘zim ayta qolay, u - sakson yoshli otaxonning hassaga suyanganicha **“as-solatu xoyrum min an-navm”**<sup>2</sup>(namoz uyqudan afzaldir) deya yangragan sadolar tomon yuzlanishidir...

## 17.

O‘zi haqida gapirayotgan erkakka,

boshqalar haqida gapirayotgan ayolga ishonma!

---

<sup>2</sup> Har bomdod azonida aytiladigan jumla

**18.**

Insonlar soʻzlarga oʻxshashadi. Bogʻlovchi soʻzlarni old koʻmakchilardan koʻra koʻproq yaxshi koʻrishadi.

**19.**

Osmondan shuncha chuchuk suv tushsa ham, dengiz shoʻrligicha qoladi.

Oʻzingga jabr qilma, baʼzilar har qancha uringaning bilan baribir oʻzgarmaydi.

**20.**

Kiyimida “arzon ayol”ning ifori.

Ogʻzida undan “arzon ayol”ning taʼmi.

Xotirasida esa birgina ayol! Bu oʻsha – bir kuni unga: “Sharaf boylikdan qimmatroq”, - degan ayol!

**21.**

Inson qiladigan birinchi xato, oʻzini xato qilishdan yuqori turishiga ishonishidir.

**22.**

Biz tarixni o‘qishga qattiq qiziqamiz.

Biz shunaqamiz: yozilishida ishtirok etmagan narsalarimizni o‘qishni yaxshi ko‘ramiz.

**23.**

Dushmanlar bilan to‘lgan bu olamda birgina dushmaning bo‘lib, yostig‘ingga bosh qo‘yishing muvaffaqiyatdir.

**24.**

Ayol kishi unga nisbatan ehtiros sotuvchisi kabi muomala qiladigan erkakdan ranjiydi.

Ayol kishi unga nisbatan muqaddasdek muomala qiladigan erkakdan ham ranjiydi.

Oddiygina, u mana shu ikki holatning birgalikda aralshmasidir!

**25.**

Yaroqlilik muddati shart bo‘lmagan yagona guvohnoma o‘lim guvohnomasidir!

**26.**

Oltin qafasga kirgan kunim haroratli qo‘l siqishganlardan hech birini oltin ketib qafas qolganida meni yupatganini ko‘rmadim.

**27.**

Bu yurtda xursandchilik bokiralardek uyali keladi. Qayg‘u bo‘lsa, buzuqilardek ochiq!

**28.**

Haqiqiy sadaqa cho‘ntakdan emas, qalbdan chiqadi.

Hatto, tilanchi ham tabassumdan dirham olganida xursand bo‘lganidek shodlanadi.

**29.**

Yuragi to‘xtaganda: “O‘ldi”, - dedilar.

Aslida, ancha oldin o‘lganini bilmadilar.

U ikki oyog‘ida yurgan tobut edi. Farqi – u o‘z-o‘zini ko‘tarib yurgandi. Bugun uni ko‘tarib olishgan.

**30.**

“Insonlar seni sekin harakatingda ayblashsa, sen ularga qayerga ketayotganingni bilishingni ayt”.

Bu – toshbaqa o‘z o‘g‘lini katta hayotga tayyorlay turib aytgan so‘zlari.

**31.**

Ularni boshliqlardek xatti-harakatlardan to‘xtatish uchun birinchi qadam: qullardek xatti-harakatlardan to‘xtashdir.

**32.**

Agar qoidalarini amalga oshirishda muvaffaqiyatsizlikka uchasang, uslublarini o‘zgartir, qoidalarini emas. Daraxtlar barglarini o‘zgartiradi, ildizlarini emas.

**33.**

Dengiz haqida kattakon bandargohdan ko‘ra kichkinagina qayiq ko‘p narsani biladi.

**34.**

Yo Alloh, bu bomdod azoni...

Mana shu bu kasal sayyora jasadida qolgan yagona urib turganidir!

**35.**

“Shamol kirayotgan eshikni yopgin-da, damingni ol”, - deb aytishadi.

Ularga qanday qilib tushuntiray?! Men bir marta sening iforingni eltuvchi shamol kirgan eshikni berkitishdek kuchli emasman.

**36.**

Kaktus ochiqko‘ngil o‘simlik.

Yaxshiliklarimiz tashqarimizda namoyon bo‘lib, tikanlarimiz ichimizdaligidan farqli o‘laroq, hamma tikanlari ichidagi yaxshiliklarni himoya qilish uchun ko‘rinib turadi.

**37.**

Farzandlarimizni boshqalardek bo‘lishlari uchun tarbiyalab, keyin eski xatolar qilganlari uchun ayblashimiz adolatsizlik emasmi?!

**38.**

Urushda qurol va kafan sotuvchilaridan boshqa hamma yutqizadi.

**39.**

Onasining suti tiqilib qolib o‘lgan chaqaloq dushmanlarsiz ham o‘lish mumkinligini erta bildi.

**40.**

Tamakisi tamom bo‘lganida dedi: “Ahmoq odam maftunkor ayolga uylanadi, oddiy odam oddiy ayolga uylanadi”.

Men dedim: “Bobo, zakiy odam nima qiladi?”.

- Qalbing bobongning sirini sig‘dirsin, bu sirni buvingni hujumidan asragin va o‘lganimdan keyin, mening nomimdan yetkazgin: “Zakiy kishilar uylanmaydilar!”

**41.**

Eski do‘stimga:

“G‘alaba sarxushligi sendan yengillatildi.

Qalbim Nuhning kemasidek basharni ham, hayvonlarni ham ko‘tara oladigan ekanligi menga ayon bo‘ldi”.

**42.**

Hamma narsani sotib olish mumkin deb hisoblaydiganlar sevgining juda ham arzonligiga ishonishadi. Chunki kambag‘allar ham bermalol seva oladilar!

**43.**

Haqiqiy muhabbat bu umr bo‘yi qalbingda belgidek ko‘tarib yuradigan narsa!

Xuddi, yelkangdagi chechakka qarshi emlashdan qolgan izga o‘xshab.

**44.**

Kimdir senga: “Qalbim tashlab ketilgan”, - desa, ahmoqqa o‘xshab unga hamdardlik bildirib o‘tirma.



Bu kishi boshqacha qilib: “Qalbimni o‘zing bilan yashnat”, -  
demoqchi bo‘lgan.

**45.**

Arab tarixidagi eng mashhur bozor Ukoz bozori.

Bu o‘tmishdan beri biz gapsotar ekanligimizning isbotidir.

**46.**

O‘zining bir do‘stiga o‘q otgan kishi bilan do‘stlashma.

Shubhasiz, u o‘z kamonini sen tomonga yo‘naltiradi.

**47.**

Tilshunoslikda turlanmaydigan ismlar bor.

Qalbda esa, unutilmaydigan chehralar.

**48.**

Tashqi ko‘rinishni muqaddaslashtiradigan kimsalarga:

Yodda tuting! Kichkina bir chumchuq kattakon tuyaqushdan  
ko‘ra balandroqqa uchadi.

**49.**

Mix (inson) boshigagina urilganingda o‘z ishingni bajaruvchi bolg‘aga o‘xshashingdan nima foyda?

**50.**

Biz ularning darajasiga tushishni istamaydiganlar, takabburlik va o‘zini yuqori tutish orasidagi katta farqni bilmaydilar.

O‘zini katta tutish bu oilamizdagilarning yoshligimzdagi maslahatlariga o‘xshaydi: “Ko‘cha bolalaridan nariroq yur!”.

**51.**

Mutolaa kishini madaniyatli qiladi, biroq yozuvchi emas.

**52.**

Liberal arab: Onasi unga turmush o‘rtoq,

Otasi farzandlarining ismini,

Qaynonasi qayerda yashashini,

Ayoli bo‘lsa, qanday yashashini tanlab beradi.

Keyin senga shunday deydi: “Men liberalman. Chunki men erkinlikni sevaman!”

### **53.**

Ba’zilarning sekin-asta rivojlanishiga qancha harakat qilma, baribir oldinga siljimaydilar.

Parvoz akademiklarining barchasi birgina toshbaqani uchishga o’rgata olmaydi.

### **54.**

Sirlarimiz – ovga aylangan paytimizda ovlashlari uchun boshqalarga ishonib topshirgan qurollarimiz.

### **55.**

Takabburlik bu – barcha sodir bo‘layotgan narsaga o‘zining aloqasi bor deb o‘ylash!

Bitta takabburni bilaman. Hali hanuz, mol jinni bo‘lishining sababi – o‘zining birdaniga vegetarian bo‘lishga qaror qilganligi, deb hisoblaydi.

**56.**

Qadimda qabilaning bitta shoiri va 1000 ta chavandozi bo‘lardi.

Hozir 1000 ta shoir va bitta chavandoz bo‘lib qoldi.

Qabilaning hurmatiga nima bo‘lganini, albatta, bilasiz.

**57.**

Bu olam telba!

Erkklari kallikdan qo‘rqadi,

Ayollari bo‘lsa ortiqcha sochdan.

**58.**

Xalqaro savodsizlikka qarshi kurash kunida bir narsani  
ta’kidlashni yaxshi ko‘raman:

Bizning muammoimiz ta’lim oluvchilarning nodonligida  
yashiringan, savodsizlarning savodsizligida emas!

**59.**

Onajon, xonangiz eshigini taqillatib: “Kechqurun  
qo‘rqyapman”, - deganida bag‘ringizga bosgan farzandingiz

ulgʻaydi. Endi u xonangiz eshigini taqillatib: “Qoʻrqinch bu sogʻinchdir (gʻam-gʻussa)”, - deyishni xohlaydi.

## 60.

Onalarning yagona xatosi – ular ogʻzimizni oʻzlaridan ajratishadi-yu<sup>3</sup>, lekin qalbimizni ajrata olishmaydi.

## 61.

Koʻp narsa soʻramayman.

Faqatgina, achchiqqina qahva va 5 daqiqaga shakarni xotiramdan oʻchirish!

## 62.

Muammoimiz – biz muvaffaqiyatsiz tajribalarimizni hayot nazariyalari qilib olamiz.

Er-xotin ajrashishi bu – er-xotinning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, nikohning emas.

Ikki doʻstning ayriluvi – ikki doʻstning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, doʻstlikning emas.

---

<sup>3</sup> Koʻkrakdan ajratish haqida gap ketmoqda

**63.**

Qadimda ikki arab safar davomida sherik bo‘lib qolishsa, biri ikkinchisiga: “Meni ko‘tarib olasanmi yoki seni ko‘tarib olaymi?”, - der edi. Bu “Gapirasanmi yoki o‘zim gapiraymi?”, degan ma‘noni anglatardi.

Biz gapning yuk ortiladigan hayvon ekanini erta bilganmiz!

**64.**

Haq va botil o‘rtasidagi kurash har asrda o‘sha-o‘sha qoladi.

Faqat, qo‘shinlar o‘zgaradi.

**65.**

Sevicklilar mohir mergan o‘qlariga o‘xshaydi.

Ko‘krak qafasini teshib o‘tishadi va qalbdan joy olishadi.

**66.**

Bu sayyoraning bechora olimlari nurni borliqdagi eng tezi deb o‘ylashadi. Ular bilishmaydiki, duoning yer va samo orasidagi masofani bosib o‘tmog‘i uchun bir soniyadan ham kam vaqt ketadi.

**67.**

Chumoli boshoq donini hech bir nolishsiz yigʻadigan ishchidir.

Chunki u katakcha (uya)sida malika yagona ekanligini biladi, katakchasi emas.

**68.**

Bizning koʻpgina muammolarimiz mushaklarga emas, aqlga muhtojdir.

Shamol qanchalik kuchli boʻlmasin, och qolgan bolakayning qoʻlidagi nonni tortib olmaydi. Biroq uyqu bu ishni osonlik bilan qilishi mumkin!

**69.**

Koʻzguga qarab, mening koʻzlarimda qanchalik goʻzal ekaningni bilishing uchun tugʻilgan kuningda senga koʻzlarimni soʻvgʻa qilaman.

**70.**

Qog‘ozning yog‘ochdan kelib chiqishini bilganimdan beri,  
daraxtga daftar, o‘rmonga kutubxona, o‘tinga esa  
bosmaxonadagi ishchi singari qaray boshladim.

**71.**

Biz hamma ishda boshqalarga ergashadigan xalqmiz.

Faqat, din ishiga kelganda yangilik o‘ylab topamiz.

**72.**

Bu virtual olamda boshqalarga o‘zingning yaxshi ekanligingni  
ko‘rsata olishing yaxshi.

Lekin eng zo‘ri sening haqiqiy olamingda yashovchilarga sen  
haqiqatda yaxshi ekaningni ko‘rsata olishingdir.

**73.**

Har qanday fikrga qarshi eng xavfli kishilar bu – fikrni qo‘llab-  
quvvatlovchilar va qarshilar o‘rtasida to‘xtab qolgan betaraflar!

**74.**



Lasos baliqlari menga muammoning egasi oqimga qarshi suzishi kerakligini o‘rgatdi.

## 75.

Fasod bo‘lgan jamiyat islohotchilarda biror ayb topa olmasa, ularni eng go‘zal narsalari ila ayblaydilar: Lut qavmi aytgan ediku: **“Lut ahlini yurtigizdan quvib chiqaring, chunki ular pokiza bo‘lishni xohlagan kishilardir”**<sup>4</sup>.

## 76.

Jazo amalning jinsidandir.

Ovchining bergan ovqatini yaxshilik deb o‘ylagan baliq, kechki ovqatga aylandi.

## 77.

Uyatsizlik bu – unga qo‘shni bo‘lgan daraxtdan yasalgan daraxtni chopayotgan boltaning sopi bo‘lishing.

Itoatsizlik esa – ana o‘sha daraxtning o‘zi bo‘lishing.

---

<sup>4</sup> “An-Naml” surasi, 56-oyat.

**78.**

Qo‘lingni ko‘ksingga qo‘yib, qalbingda hech kimni topmasliging doim ham qayg‘uli emas.

**79.**

Sabotli kishilar haqida ko‘p gapirayotgan kishi, boshqa bir yo‘l bilan senga o‘zining beqarorligi haqida aytishga harakat qilyapti.

**80.**

Bu jahon bilan mening muammoim – men xohlagan narsamni gapiraman, u bo‘lsa, faqat, o‘zi eshitishni xohlagan narsani eshitadi.

**81.**

Aloqa (vositalari) inqilobi Yer sayyorasini “kichik qishloq”qa aylantirish borasida muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa-da, insoniyatni qo‘shnilarga aylantirishda omadsizlikka uchradi.

**82.**

Bugungi kundagi tanqidiy adabiyot xo‘rozlar jangiga o‘xshaydi.  
Undagi eng muhim jihat bu oxirgi patning yulib olinishidir.

**83.**

Men yangi fikrga ega bo‘lish uchun emas,  
balki eski fikrlarimdan xalos bo‘lish uchun o‘qiyman.

**84.**

Qahva idishi ichidagi suv qaynamayapti.  
Chunki u barmoqlaringga teginish uchun “barmoqlar”i uchida  
turibdi.

**85.**

U mahzunlikka tayyor edi. Natijada, go‘zal qalb va kuchli  
xotiraga ega bo‘ldi.

**86.**

Qo‘rqinch ichimda unib, tuproqdan ekanimga ishonchim ortdi.  
Quvonch bizning yurtida “farzi kifoya”, qahr esa “farzi ’ayn”dir.

**87.**

Yetishni xohlaganimizda yo‘llarning uzun bo‘lib qolishi g‘aroyib emasmi?!

**88.**

Tarix sahifalarida qolganlar va undan ataylab yoki g‘ofillik tufayli tushib qolganlar...

Ularning geografik nasibalari 2 metr tuproq bo‘ldi.

**89.**

Inson chegarasidan tashqari narsalar ichida tarix deb nomlanuvchi narsa yo‘q.

Tarix - insoniyat yasagan o‘zgaruvchan narsadir. U bilan yer yuzida xatosidan o‘rganmaydigan yagona jonzot ekanliklarini ta’kidlab turadilar.

**90.**

Bir toifa insonlar bo‘lmagan narsani xuddi bo‘lgandek yozadilar.

Yana bir toifa insonlar esa, bo‘lib o‘tgan narsani xuddi bo‘lmagandek tushirib yuboradilar. Qisqacha aytganda, bir toifa insonlar o‘tmishlari xijolatli ishlarga to‘la bo‘lganligi uchun aldaydilar.

## **91.**

Buvim aytardilar: “Qiyomatning katta alomatlari sodir bo‘ldi, yubkalar kaltalashib ketdi”. Buvim 7 yil oldin vafot etganlar. Men har kuni qiyomat bo‘lishini kutaman, chunki yubkalar ko‘proq kaltalashib ketmoqda.

## **92.**

Senga: “Farzandli bo‘l, sendan keyin ismingni ko‘tarib yuradi”, - deyishadi.

Tug‘ilishingdan avval senga tanlashadigan ismning sha’ni haqida, hatto, o‘lib ketganingdan keyin ham qayg‘urishing kerak.

## **93.**

Haq gap jundan qilingan jemperga o‘xshaydi. Uning munosib vaqti ob-havo sovuq bo‘lgandadir. Ammo uni yozda kiyish kishini hazilkash insondek qilib qo‘yadi.

#### **94.**

Nafratga aylanadigan muhabbat avvalidanoq muhabbat bo‘lmagan.

Muhabbat shunday bir hokimiyat-ki, faqatgina unga qarshi inqilob qila olmaysan.

#### **95.**

Imom Shofe’iy ko‘p unutib qo‘yayotganlari haqida Vaki’ga shikoyat qilganlarida bu ma’siyatning ko‘pligidan bo‘lishini aytdilar.

Allohim, hali ham ismlarimizni unutib qo‘ymayotganimiz uchun o‘zingga hamd bo‘lsin.

#### **96.**

Yolg‘izlik atrofingdagi odamlar soniga qarab emas, balki ularning senga bo‘lgan hissiyotlari chegarasiga qarab bo‘ladi.

**97.**

Uzoq davom etgan hamkorlik do‘stlikni paydo qilmaydi.

Mana ming yillardan beri bug‘doy o‘roq bilan, yog‘och taxta kesish zavodi bilan hamkor!

**98.**

Qabih ishdan yomon narsa yo‘q. Faqat, ularga oqlovchi dalillarni sotishimiz undan yomonroq.

**99.**

Surgun joyi haqida gapirayotgan kishiga ishonilmaydi. Surgun joyi bo‘lishi uchun, avvalo, vatan bo‘lishi kerak.

**100.**

Oyoq kiyim sotuvchisi mendan so‘raydi:

- Qaysi oyoq kiyimni xohlaysiz?
- Men arabman, menga Hunaynning oyoq kiyimidan<sup>5</sup> ber!

---

<sup>5</sup> Arablarda “Hunaynning oyoq kiyimi bilan qaytdi”, degan maqol mavjud. Bu maqolda sodda arab barcha narsasidan ayrilib, birgina oyoq kiyim bilan qaytadi. Yozuvchi shunga ishora qilmoqda.

**101.**

O'layotgan paytida narxi oshadigan yagona narsa bu vijdondir.

**102.**

Vatanning tuprog'i ajoyib-da! Uni qancha bosganimiz sari bizni ko'proq sevadi.

**103.**

Oldingga kech keldim, chunki seni erta yo'qotishdan qo'rqdim.

**104.**

Jamiyatimizdagi ko'p erkaklar sherdirlar. Urg'ochilariga hamma narsaning g'amini tashlab, o'zlari esa irillashni bo'ynilariga oladilar.

**105.**

Dengizchilarni yo'l emas, shamol yetaklaydi.



**106.**

Kattaroq qalb xohlayman...

Seni loyiqligingcha sevish uchun...

**107.**

Qachonki, sajda qilsang menga xabar ber, yerni o‘pay. Chunki hozir peshonangdan o‘pishning yagona yo‘li shu.

**108.**

Qachon farzandlaringizning yuzidan o‘psangiz, bilingki, Hims<sup>6</sup>da na bolalarning yuzi qoldi, na otalarning labi.

**109.**

Suriya bolalari oddiy bola edilar. So‘ngra to‘satdan Reuters’ga “tezkor xabar” bo‘lishdi. So‘ng, yig‘layotgan boshlovchi o‘limlari haqida e’lon qildi. Keyin, biz ayollardek yig‘ladik...

**110.**

---

<sup>6</sup> Suriyadagi shahar

Magʻlubiyatdek ogʻir narsa yoʻq. Faqatgina, yordamsiz qolish ogʻirroq.

Chunki magʻlubiyat dushman tomonidan keladi. Yordamsiz qolish esa doʻstlar tomonidan boʻladi.

### **111.**

Sevgi haqida koʻp gapirish uning yoʻqligidan dalolat beradi. Insonlar oʻzlarida yoʻq narsa haqida koʻp gapirishadi. Marhum haqida koʻp gapirayotgan mana bu bevani koʻrmaysizmi?!

### **112.**

Oʻlimdan ham yomoni hayotsiz hayotdir.

### **113.**

Sevgi koʻr boʻlish uchun tugʻildi.

Kichik kamchiliklar koʻzga koʻrinishni boshladimi, demak, u chamadonini yigʻishtira boshlabdi.

### **114.**

She'ning haligacha shoirlarga noma'lum bo'lgan vazni bor. Bu sening qadaming ritmidir!

**115.**

Men shunday bir vatan istaymanki, u yerda farzandlarimni o'z haq-huquqlarini talab qilishni o'rgatib tarbiya qilay va meni hech kim terroristik uya tuzishlikda ayblamasin.

**116.**

Yozuv – odamzot bilgan eng muhim yashirinish vositasi.

**117.**

Bomdod namozida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi javob berolmaydigan narsa bor. U sajda qilib ko'tarilishdir.

**118.**

Ayol pichoqqa o'xshaydi. Agar kishi dastasidan ushlasa, foydali va itoatkor vosita. Lekin ko'p kishilar tig' tomonini ushlaydilar-u, keyin yetkazgan jarohatidan o'ksinib yuradilar.

## **119.**

Biz sizdan temir eshiklar xohlamaymiz.

Faqatgina, o'g'rilar bilan bizning oramizni ayirishingizni istaymiz.

## **120.**

Har ikki rak'at orasida tahorat qilgin. Bizning uyda suv chanqagan!<sup>7</sup>

## **121.**

Ozod va qulni ajratib beruvchi nasa terisining rangi emas, balki ruhdir!

Ko'pgina qordek oppoq kishilar, aslida, qullar!

## **122.**

Begonalikning eng yomoni Vatanning ichidagi begonalikdir.

## **123.**

---

<sup>7</sup> Bu so'zlarida yozuvchi ayol kishiga murojaat qilmoqda. Yozuvchi: "Sening tahorating ila, suvlarning chanqog'i bosilar", deb ayoliga murojaat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Abbos ibn Firnos<sup>8</sup> uchish uchun harakat qilmagandi. Balki u:  
“(Yer) qandayin tor bo‘lib ketdi!”, - deyishga uringan edi.

Faqat, bu gapini patdan yasalgan ikki qanot bilan aytdi.

## **124.**

Biz natijalardan so‘ralmaymiz. Balki mana shu natijalarni  
amalga oshirish uchun yurgan yo‘llarimizdan so‘ralamiz.

Qiyomat kuni payg‘ambarlar yonlarida hech kim bo‘lmagan  
holatda keladilar.

## **125.**

Uzoq joylar mavjud emas. Biz borishni istamagan joylarimiz  
mavjud!

## **126.**

Ayolning ko‘p shubha qilishi – muhabbat.

Erkakning ko‘p shubhasi – ishonchning kamligi!

---

<sup>8</sup> Abbos ibn Firnos birinchi bo‘lib uchish qurilmasini yasagan olim. Batafsil [bu yerda](#) o‘qing.

## **127.**

Katta bo‘lgach onasiga dedi:“Nima uchun charchaganimda menga suyanchiq bo‘ladigan aka bilan meni qutqarmadingiz?”

Ona: “Senga Qobilning qilmishi haqida aytish vaqti bo‘libdi”.

## **128.**

Inson taomsiz qancha muddat yashay olishini bilish uchun bir arabni olib kelishdi va og‘zini bog‘lab qo‘yishdi.

Ikkinchi kun uni o‘lik holatda topishdi. Chunki u kam gapirgan edi.

## **129.**

Sehrli tabassum oq tishlarga muhtoj emas. Balki oppoq qalbgga muhtoj.

Eng yaxshi tabassum esa bolalarning tabassumidir. Chunki ularning go‘shtingni yeb so‘ngra tabassum qiladigan tishlari yo‘q.

## **130.**

Men sahobalar qanday bo‘lishganini bilmayman. Lekin Ibn Salul bomdod namoziga soatsiz (budilniksiz) uyg‘onganini bilaman. Bu o‘zini ulardan qilib ko‘rsatgan (munofiq) odamning holati bo‘lsa, sahobalar qanday bo‘lishgan ekan-a?!

### **131.**

Oldin bizning nazdimizda sharaf jang maydonidagi qilichlarga bog‘liq edi. Bugun esa futbol o‘yinchilarining oyoqlariga bog‘liq bo‘lib qoldi.

### **132.**

Tuzumlarni himoya qiladiganlarga ajablanmang!

Qafasda tug‘ilgan chumchuqlar qafas egasini tarbiyachi, qafasni esa vatan deb o‘ylaydi.

### **133.**

Rivojlangan millat bu - aqlni ochib, avratni berkitgan millatdir.  
Aqlni yopib, avratni ochgan emas.

### **134.**

Ayol safarga ketishni xohlar ekan unga dedi: “Menga nasihat qiling!”.

U aytdi: “Allohga taqvo qil va yomg‘ir ostida yurma! Zero, shakar suvda erib ketadi”.

### **135.**

Immigratsiya bo‘limida mendan: “Guvohnoma qidirayotgan sizmi?” - deb so‘rashdi.

“Yo‘q, Vatan izlayotgan menman!”, - dedim...

### **136.**

Farzandlaringizga tarixni o‘rgating! Ammo ularni tarixda yashaydigan qilib qo‘yishdan ehtiyot bo‘ling!

Chunki hech kim muzey qanchalar chiroyli bo‘lmasin, unda yashashni istamaydi.

### **137.**

Yangi yostiqlar sotib olish orqali uyqusizlikdan xalos bo‘lishga urinayotganlar tongda yostiqlar uyqu bitimiga yetarli emasligini anglab yetishadi.



### 138.

Bu tong ham eshigimni taqillatmaganing rostmi? Yoki eshik xudbinlik qilib, barmoqlaring ovozini bir o‘zi ichishga qaror qildimi?!<sup>9</sup>

### 139.

Ketma-ket egizaklarni dunyoga keltirgan ona hayot aka-uka orasini ajratib tashlashini boshqalardan ko‘ra ko‘proq anglaydi.

### 140.

Ota qoshlarini chimirgan payt kichkina farzand unga dedi: “Alloh umringizni uzun qilsin, otajon! Albatta, onasi yo‘q yetimdir!”.

### 141.

Tarix ostonasida, xuddi, yetimlardek to‘xtab qolishimiz tabiiy edi. Zero, geografiya “ma’raka”sida ulkan yo‘qotish qildik.

---

<sup>9</sup> Bu yerda yozuvchi ayol kishiga murojaat qilgan. Ayolning eshik taqillatishini ham bir kuyga qiyos qilib, eshikni bu kuyini “ichganlikda” so‘roqlagan ma’nosida bo‘lishi mumkin.

## 142.

Isitma bilan og‘riganimda har bir narsaning tili borligini bildim.

Oyna:

- Qurib ketsin! U yana baxtiqaro yuz-ku!

Sovun:

- Naqadar sassiq teri!?

Suv:

- Qo‘llaring toza, ahmoq! Undan ko‘ra qalbingni yuv!

## 143.

Barcha yo‘llar senga olib boradi. U holda sen yonishi kerak bo‘lgan Rimdeksan.

## 144.

U shu qadar xiyonatga berilib ketgan ediki, biror kim oldidan o‘tib qolsa:

“Nega meni pichoqlamadi?! Qo‘llari yo‘qmikan?!”, - derdi.

**145.**

Ba’zida biz kulamiz. Chunki yig’iga “sarmoya”mizni kiritib bo’ldik.

**146.**

Ba’zilarga sog’inchimizning ko’pligidan “qani edi ularni bir kun ham uchratib qolmagan bo’lsak”, deb orzu qilib qolamiz.

**147.**

Otasi yo‘q - yetim, onasi yo‘q - yetimlar uyi.

**148.**

“Aqli kalta”(ayol)da qiyinchilik vaqtlari mingta erkakning aqli bo’ladi. Aql-u zakovati kuchli bo’lgan ayol, agar, munosib erkak topsa, u(erkak) u(ayol)ning yordamida buyukka aylanadi.

Xo’sh, bizning oramizda onamiz Xadicha<sup>10</sup>ning aqli yoki qalbi mavjud erkak bormi?

---

<sup>10</sup> Roziyallohu anha (Alloh ulardan rozi bo’lsin)

**149.**

Biz farzandlarimizni shunday (jirkanch) dunyoga keltirganimizda ularga oq bo‘lganmiz. Kelinglar, endi oq bo‘lishni ular bilan ikkinchi marotaba boshdan o‘tkazmaslik uchun ularni yaxshilab tarbiyalaylik.

**150.**

Ba’zi yo‘lovchilar sumkalarini ortib ketaveradilar. Boshqa ayrimlari bo‘lsa, hayotimizni ortib ketadilar.

**151.**

Agar sen boshqalarni o‘zing bilan hayron qoldirmoqchi bo‘lsang, sen o‘zing bo‘l. Chunki shunchalik ko‘p niqob almashtirganingdan odamlar seni boshqa inson deb o‘ylab qolganlar.

**152.**

Umar Muxtor at-Tvittriy: “Biz sukutni bilmaydigan xalqmiz. Gap sotamiz yoki o‘lamiz<sup>11</sup>”.

---

<sup>11</sup> Bu yerda Umar Muxtor singari buyuk qahramonga taqlid qilib, nomini shunday qo‘yib olgan Twitter (taxallusdagi at-Tvittriy o‘zlashma shakli) foydalanuvchisining gapi kesatliq sifatida

**153.**

Men tan olaman, hayotimda sodir bo‘lgan eng go‘zal ish bu – sensan, sening hayotingdagi eng yomon ish bu – menman.

**154.**

Kitoblarini nashr qiladiganlar otalari Odam haqida unga oqlik qildilar. U zot jannat varaqlaridan jinsiy a’zolarini berkitish uchun foydalangan bo‘lsa, ular bosmaxona varoqlarini “avrat”larini ko‘rsatish uchun ishlatishyapti.

**155.**

Biz solishtirish janggida yutishda, tatbiq etish janggida esa mag‘lubiyatda bardavom bo‘lgan arablarga o‘xshaymiz.

Bunga sabab har qanday masalga bizning munosabatimiz bittaligi: “Mening huquqim qani? Mening hech qanday majburiyatim yo‘q!”.

---

keltirilmoqda. Aslida, Umar Muxtor quyidagicha aytgan: **“Biz taslim bo‘lmaymi! Yo g‘alaba qozonamiz, yo o‘lamiz”**.

**156.**

Onajon! Qo‘lingizni dunyo bolalari boshi uzra siypalab chiqing.  
Zero onasi siz bo‘lmagan har go‘dak yetimdir.

**157.**

Barchamiz mahbusmiz. Lekin ba‘zilarimiz qamoqda,  
ba‘zilarimiz vatanda tutqunmiz.

**158.**

Mutolaa boshqalar fikrining muvaffaqiyatini senga taqdim qiladi. Ammo afsuski, u seni shaxsiy fikrlashingni ozaytirib qo‘yadi.

**159.**

Ba‘zi tanqidchilar matnni asalari ko‘zi bilan o‘qib undan nektar uyi qidirishadi.

Ba‘zilar esa xato topish uchun pashsha ko‘zi bilan o‘qishadi.  
Ular xuddi izquvarlikni qoyilmaqom bajarishni da‘vo qiluvchi ko‘rga o‘xshaydilar.

**160.**

Ortdan zarba berish juda ham ogʻriqli.

Biroq biz qay biri ogʻriqliroq ekanini aniq bila olmaymiz: zarb taʼmimi yoki xiyonat?!

**161.**

Biz unutmaymiz, balki oʻzimizni unutgan qilib koʻrsatamiz.

Chunki ular bizni ogʻriqlarimiz, qaygʻularimiz, xatolarimiz, shiorlarimiz-u oʻtmish xotiralarimiz bilan qabul qilishmaydi.

**162.**

Oʻqituvchi meni bir soatda men yashaydigan yerning boʻlagi “Vatan” deb atalishiga ishontirdi. Men esa bu vatanni oʻttiz yildan beri “inson” ekanimga ishontira olmadim.

**162.**

Biz peshqadam sanoatchi millatmiz. Har birimizning koʻksimizda qahr ishlab chiqaruvchi “zavod” bor!

**163.**

Bitta do‘st mingta dushman qila olmaydigan narsani qalbingda qiladi.

**164.**

Yaxshi o‘quvchi yaxshi yozuvchidan ancha muhimroq.

**165.**

Yo‘qligingda yarim finjon qahva ichdim, yarimta tamaki chekdim va yarimta matn yozdim, shunchaki, sensiz yarimta ekanimni bilishing uchun...

**166.**

Odamlar dinlarining yarmi komil bo‘lishi uchun turmush qurishadi. Lekin ba’zi er-xotinlar o‘zlaridagi (yagona) yarimtani ham ajratishadi.

**167.**

Tez suratda nafasingni rostlab olishing kerak. Bu sayyoraning havosi tozalash uchun shoshilinch zaruratda.

**168.**



Har kuni asos (prinsip)larini o‘zgarituvchilar bir kun ham asosi bo‘lmagan shaxslardir.

**169.**

Birortasi “biz o‘rmonda yashaymiz”, deb o‘ylamasligi uchun ham yerga bitta daraxt ekishni xohlayman.

**170.**

Dengiz suvini chuchuklashtirish uchun katta mablag‘ sarflayaptilar. Men esa barmog‘ingni dengizga botirishing yetarli bo‘lishini ularga aytdim.

**171.**

Biz toshbag‘irlik bilan bosayotgan bu tuproq naqadar buyuk. Oxir-oqibat, oq bo‘lgan farzandini bag‘riga bosgan onaga o‘xshab, bizni muloyimlik bilan quchoqlaydi!

**172.**

Onamning quchog‘idan boshqa barcha yaxshi ko‘rgan boshpanalarim teshik xotiramdan to‘kildi.

**173.**

Mol yog‘i, shakar, guruch va o‘simlik yog‘i narxlari o‘shida davom etyapti.

Bu yerda narxi tushadigan yagona narsa faqat insondir.

**174.**

Yaxshi o‘qimaydigan teskari o‘qiydigandan ming chandon yengilroq.

**175.**

Qahvaning achchiq ta‘midan rohatlanib haqiqat achchig‘idan qochishimiz g‘irt irqchilikdir.

**176.**

Shaytonlarning ishini tadabbur qilishimiz juda oson. Ammo insonlardan bizni saqlashi uchun sodiq qalb bilan Alloh tomon “qochish”imiz kerak.

**177.**

Tarixdagi eng katta davlat “arab voizlik davlati”dir.

U sharqda Imru'ul Qays “tomog‘i”dan, g‘arbda Mutanabbiy “tomog‘i”gacha, shimolda Shanfro tomog‘idan, janubda Axtal<sup>12</sup> “tomog‘i”gacha “cho‘zilgan”.

O‘sha kundan arablarning gapi kengayib, davlatlari torayyapti.

### **178.**

Unga dedim: “Ey ishboshi! Kechani na bir qonunbuzar, na unga vosita va na fasod bo‘lmagan vatanda o‘tkazdik”. U dedi: “Tungi zikrlarni qilib olinglar! Zero bu tushdagi orzudir”.

### **179.**

Bu hali qayg‘umning hammasi emas. Shunchaki, qo‘limdan kelgancha yig‘ladim, xolos.

### **180.**

Mendan so‘radi:

- Ahvoling qanday?

---

<sup>12</sup> Imruul Qays, Mutanabbiy, Shanfaro va Axtal – mashhur arab shoirlari.

Men javob berdim:

- Charchagan va mahzunman! Shu ikki javob (charchoq va mahzunlik)dan birini mendan aritadigan do‘st bilan bog‘lanishni istayman!

### **181.**

Qafasdagi chumchuq ovchilarning miltig‘idan omonda. Lekin bor kuchi bilan ozod bo‘lmoqqa intiladi. Chunki u daraxt shoxida turib o‘q yeb o‘lmoq, har kuni qafasdagi xorlikdan go‘zalroq ekanini biladi.

### **182.**

“Agar sening itda bir ishing bo‘lsa, unga janob deb murojaat qil!”

Mana shunday maqollar bizni bir hovuch yaltoqilarga aylantirdi. Itlar bo‘lsa, o‘zlarining janob ekanlariga ishona boshlashdi.

### **183.**

Ayol kishi bilan baxtli bo‘lish uchun Ayyubning sabri va Ya‘qubning ko‘rligiga ega bo‘lmoq kerak.

Ayol kishini baxtli qilish uchun Luqmonning hikmati va Qorunning mol-dunyosiga ega bo‘lmoq kerak.

**184.**

Quduq yonginasida tik turib, suv ichish uchun qaddini bukmagan daraxtning o‘limi naqadar go‘zal!

\*\*\*

*Katta bo'lgach onasiga dedi: "Nima uchun charchaganimda menga suyanchiq bo'ladigan aka bilan meni qutqarmadingiz?" Ona: "Senga Qobilning qilmishi haqida aytish vaqti bo'libdi".*

*Aholisi "madaniyatli" bo'lish uchun sanchiqi-yu pichoqda bir birini yeyotgan ushbu dunyo bilan muomala qilish (hamnafas bo'lish)ga kamroq aql va ko'proq jununlik kerak!*

*Adham Sharqoviy*

